

Tuzucchilar:

**Tilabov T
Ermatov Sh
Shaymanova A.**

**Sotsiologiya fanidan seminar mashg'ulotlarining ishlanmasi
(16 soat)**

1- Mavzu: Sotsiologiya fanining predmeti, ob'ekti va ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni.
(2 soat)
Reja:

1. Sotsiologiya fanining predmeti va tadqiqot ob'ekti.
2. Sotsiologiya fanining uslub va qonuniyatlari.
3. Sotsiologiya fanining sohaviy tizimlari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni.
4. Sotsiologiyaning hozirgi zamon tizimlari va ularning tasnifi.

1. Seminar mashg'ulotidagi birinchi savolni yoritishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozimdir. Sotsiologiya jamiyat haqidagi fandır. Sotsiologiya jamiyatning ichki tarkibini, uning amal qilish tartibotlari va rivojlanish qonunlarini o'rganadi. O. Kont sotsiologiya fanining asoschisi. Frantsuz sotsiologi E. Dyurkgeym, nemis olimi M. Veber, amerikalik sotsiologlar T. Parsons, P. Sorokinlarning sotsiologiya fanining ob'ekti va predmeti haqidagi fikrlarini batafsil izohlab bering. Sotsiologiya ob'ekti va predmetini zamonaviy tushunishning ikki xil yo'nalish mavjud, seminar mashg'ulotini tayyorlashda bularga e'tibor qaratish joizdir.

2. Sotsiologiya – ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funktsionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Sotsiologik metodlar deganda sotsiologik bilimni asoslab berish va ko'rish usuli, sotsial sistemalarni imperik va nazariy o'rganishning usul va amallari tushuniladi. Bular haqida batafsil ma'lumot bering.

Sotsiologiya ikki katta qismga bo'lib o'rganiladi. Nazariy va amaliy sotsiologiya. Umum sotsiologik nazariyalar, maxsus sotsiologik nazariyalar va emperik sotsiologik tadqiqotlar. Seminar mashg'ulotini tayyorlashda bularni har biriga aloxida e'tibor qaratmoq lozimdir.

3. Sotsiologiya ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Sotsiologiya fani umuminsoniy va milliy qadriyatlar mutanosibligiga tayanuvchi metodologiya asosida ish yuritadi.

Sotsiologiya fani olamni anglash jarayonini chuqurroq o'zlashtirish maqsadida tarix, falsafa, psixologiya, pedagogika, etnografiya, sanatshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari bilan yaqin hamkorlikda.

Sotsiologiya fanini huquqshunoslik, iqtisod va statistika fanlari bilan aloqadorligi. Seminar mashg'uloti tayyorlashda yuqorida sanab o'tgan fanlar bilan o'zaro aloqadorligini birma-bir izohlab bering.

4. Sotsiologiya fani sohaviy tasnif etilganda turli yo'nalishlar mohiyatiga ega bo'lgan ilmiy tarmoqlarga bo'linadi.

Birinchi bosqichdagi ilmiy tarmoqlar qatoriga umumnazariy, umummetodologik va sotsiologik fanlar kirishi. Jumladan, akademik, matematik, tarixiy, amaliy va mintaqaviy sotsiologiya sohalar.

Ikkinchi bosqichdagi zamonaviy sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatorida shaxs sotsiologiyasi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik, ekologik hamda institutsional sohalar.

Uchinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatorida ta'lim, madaniyat, fan, din, sanat va boshqa yo'nalishlar.

To'rtinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatorida regional va jamoaviy hususiyatga ega bo'lgan yo'nalishlar. Jumladan, yoshlar, oila, shahar va qishloq sotsiologiyasi. Bular to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'ting.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999 y.
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz. – T.:O'zbekiston, 2000 y.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. – T.: O'zbekiston, 2000 y.
4. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999 y. 10-19 betlar.
5. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari – T.: Fan, 1994 y.
6. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. Andijon, 1995 y.
7. A. Xolbekov U. Idivov Sotsiologiya. Lug'at – T.:Ibn Sino nashr. 1999 y.
8. R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., "O'AJBNT" Markazi, 2002 y. 7-23 betlar.
9. Rafiqov G. Mullajonova M. Raximov B. "Sotsiologiya" o'quv qo'llanma. – T.: 2003 y.

2 – Mavzu: Sotsiologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiy etishi.

(2 soat)

Reja:

1. Antik dunyo sotsiologiyasi.
2. Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.
3. Sotsiologiyaning Yevropada fan sifatida vujudga kelishi.
4. XIX asr oxiri XX asr boshlarida klassik mumtoz sotsiologiya.

1. Antik dunyo sotsiologiyasi jahon sotsiologiya maktabining nazariy – maʼnaviy poydevori va unga doimiy ilhom bagʻishlovchi bebaho obidasi hisoblanishi.

Antik davr sotsiologiyasini ilk namunalari Kichik Osiyoning gʻarbiy sohillari – Ioniya oʻlkasi shaharlarida yashovchi greklar tomonidan dunyoga keltirildi.

Antik dunyo sotsiologiyasini yuzaga kelishi hamda taraqqiyot tendentsiyalari hususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda guruhlash toʻgʻrisida маълумот беринг.

1. Eng qadimgi grek sotsiologiya maktabi. Gomer, Milet maktabi vakillari, K. Pifagorning sotsiologik qarashlari.

2. Grek demokratiyasi ravnaqi davri sotsiologiyasi. Geraklit, Parmenid, Zenon, Empedokl, Anaksagor, Prator, Gorgiy va boshqalarning sotsiologik qarashlari.

3. Antik dunyo olamining “oltin davri”. Sokrat, Levkipp, Demokrit, Platon, Aristotellarning sotsiologik qarashlarini birma-bir yoritib bering va ushbu davrlarning bir-biridan farq qilidan jihatlarini izohlab oʻting.

2. Ikkinchi savolni yoritishda asosan quyidagilarga eʼtibor qaratish lozimdir:

Sharq xalqlarining hayotga boʻlgan sotsiologik qarashlari mohiyat eʼtiborga koʻra, Gʻarb sotsiologlarining ijtimoiy yondashuvlardan farq qilishi .

Qadimgi Sharq kishisi uchun oʻzlikni anglash, maʼnaviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi, moddiy boylikdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, oʻzlikda sokinlik topishga intilish harakatlari.

Miloddan avvalgi III ming yillikning oʻrtalaridan boshlab Misr, Hindiston, Mesopotomiya, Xitoy davlatchiligining mustahkam anʼanalarining yuzaga kelish sabablari.

Abu Mansur al – Moturidiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abu Zayd Abdurahmon Ibn Xaldun, Amir Temur, Z.M. Bobur, Alisher Navoiy va boshqa sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.

3. XVIII asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropadagi sotsiologik dunyoqarash harakteri va mazmuni mazkur jamiyatdagi ijtimoiy oʻzgarishlar bilan izohlanishi.

O. Kont pozitiv sotsiologiya asoschisi. Frantsuz olimi O. Kontning sotsiologiya fanining rivojlanishidagi xizmati.

O. Kontning qarashlari ingliz olimi Gerbert Spenser asarlarida oʻz rivojini topishi.

Avstriyalik sotsiolog Zigmund Freedning sotsiologik qarashlarini izohlab oʻting.

4. XIX asr sotsiologik nazariyalari rivoji sotsiologiyaning hamma tan olgan universal ijtimoiy fanga aylanishiga sharoit yaratib berishi.

V. Pareto, F. Tennis, E. Dyurkgeym, M. Veber, P. Sorokin va boshqa sotsiologlar ijodi.

XX asr boshlaridagi Italiyaning eng ko'zga ko'ringan nazariyotchisi Vilfredo Pareto "Umumiy sotsiologiya tartibi" keyinchalik G'arb sotsiologiyasining klassik ijodi namunasi deb tan olinishi.

Sotsiologiyaning rasmiy maktabi namoyondalari V. Diltey, G. Zimmel, F. Tennislarning sotsiologiya fanini rivojlantirishdagi xizmatlarini yoritib bering.

Adabiyotlar:

1. A. Xolbekov U. Idivov Sotsiologiya. Lug'at – T.:Ibn Sino nashr. 1999 y.
2. Xolbekov A. Sharq va G'arb mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari. – T.: 1996 y.
3. Bekmurodov M. va boshqalar. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. –T.:O'zROUMVA, 2000 y.
4. R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., "O'AJBNT" Markazi, 2002 y. 24-57 betlar.
5. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matni. – T.: ToshDU, 2000 y. 34-41- betlar.
6. S. Nosirxo'jaev, M. Bekmurodov, T. Sultonov Sotsiologiya asoslari. – T.: Nizomiy nomli ToshDU. 2001 y.
7. Abdurahmonov va boshqalar. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. – T.: O'zRIIVA, 2000 y. 164-189-betlar.

3 – Mavzu: Maʼnaviy hayot sotsiologiyasi.

(2 soat)

Reja:

1. Ijtimoiy munosabatlar sotsiologiyasi.
2. Fan sotsiologiyasining predmeti.
3. Din sotsiologiyasi fanining muhim obʼekti sifatida.
4. Madaniyat sotsiologiyasi.

1. Ijtimoiy birdamlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim oʻrin tutadi. Chunki birdamlik – koʻpgina maʼnaviy omillar majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya boʻlib, u ijtimoiy hayotga faoliyat koʻrsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining koʻrinishidir.

O. Kont, G. Spenser, E. Dyurkgeymning ijtimoiy birdamlik tushunchasiga bergan taʼriflari.

Begonalashuv muammosi sotsiologiya fanining muhim masalalaridan biri. Begonalashuvning turlari.

1. Iqtisodiy
2. Siyosiy
3. Madaniy
4. Ijtimoiy
5. Psixologik

Ushbu savolga R.A. Ubaydullaeva, M. B. Bekmurodov, O.B. Ota-Mirzaev va boshqalar avtorligida nashrdan chiqqan. Sotsiologiya. T., “OʻAJBNT” Markazi, 2002 y, Oʻquv qoʻllanmasining 61-67 betlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Fan sotsiologiyasi. Fan sotsiologiyasining predmeti. A.A.Zvorikinning Fan sotsiologiyasi boʻyicha tadqiqotlarining natijalari. Sotsiologiya va fan tizimidagi muammolar. Ilmiy kadrlarni baholash mexanizmlari. Fan taʼminotining kontseptual vaziyati. Fanning boshqaruv va axborot taʼminoti.

3. Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi boʻlgan din va diniy eʼtiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim obʼektlaridan biri. Sotsiologiya faning asoschisi O. Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga boʻlar ekan, asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qilishi va uning tasnifida insoniyat oʻz rivojida uch bosqichni bosib oʻtishi;

- teologik;
- metofizik;
- ilmiy.

Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan oʻlkan allomalar Yusuf Xos Hojib, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari oʻnlab va yuzlab olimu fuzalolarning din va jamiyat muammosiga bildirgan fikrlari.

Din sotsiologiyasi maxsus ilmiy yoʻnalish sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllanishi.

Din sotsiologiyasining shakllanishi M. Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bogʻliqligi.

4. Madaniyat sotsiologiyasi. Madaniyat tushunchasi va uning mazmuni. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Ularning o'zaro uzviy bog'liqligi. Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi. Madaniyatning moddiy va nomoddiy qadriyatlar bilan bog'liq turlari. Ijtimoiy institutlarning ko'rinishlari. Tsivilizatsiya va uning tasnifi. Madaniy statika va madaniy dinamika tushunchalari. Madaniyat majmui. Madaniyat shakllari: elitar va ommaviy madaniyat xaqida seminar mashg'uloti vaqtida batafsil ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T. Ma'naviyat 2008 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999 y.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000 y.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. – T.: O'zbekiston, 2000 y.
5. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999 y. 82-86, 122-127 - betlar.
6. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari – T.: Fan, 1994 y.
7. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. Andijon, 1995 y.
8. Yunusov K. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Andijon. 1997 y.
9. R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., "O'AJBNT" Markazi, 2002 y. 61-99 betlar

4 – Mavzu: Ijtimoiy tuzilmalar sotsiologiyasi.

(2 soat)

Reja:

1. Jamiyatning ijtimoiy tarkibiy tuzilishi. Sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik tushunchalari.
2. Yoshlar sotsiologiyasi tushunchasi.
3. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi

1. Jamiyatning ijtimoiy tarkibiy tuzilishi haqida. Qadimda jamiyat turli xil tabaqalarga, guruhlariga bo'linganligi, jumladan, Misr, Vavilon, Afina va Rimda, Hindistonda, Qadimgi Turon mamlakatlari misolida yoritib bering.

Sotsial stratifikatsiya tushunchasi jamiyatni ijtimoiy guruhlariga, qatlamlarga ajratilganligini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifodalaydi.

Sotsial stratifikatsiya tushunchasi E. Dyurkgeym, M. Veber, P. Sorokinlarning ilmiy faoliyati natijasida shakllantirilishi va rivojlantirilishini ularning asarlari orqali izohlab bering.

Sotsial mobillik tushunchasi, uning asoschisi haqida, vertikal va gorizontal sotsial mobilliklar haqida tushunchalar bering.

2. O'zbekiston demografik xususiyatiga ko'ra yoshlar mamlakati hisoblanadi. Yurtimizda istiqomat qilayotgan jami aholining 60%dan ziyodini 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ushbu statistik ma'lumotlardan kelib chiqib, zamonaviy sotsiologiyada yoshlar sotsiologiyasi maxsus soha sifatida nima uchun o'rganilishi zarurligi haqida, O'zbekistonda yoshlarga berilgan e'tibor, qilingan va qilinayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot bering.

Zamonaviy sotsiologiyada yoshlarni muammosini o'rganishda tamoyillar asosida o'rganilishini izohlang: tarixiylik, tabaqaviylik

Yoshlar sotsiologiyasi maxsus soha sifatida AQSH, qadimgi Olmoniya (Germaniya), Frantsiyada shakllanishi xususida. G'arbiy Yevropalik sotsiologlar asarlaridan yoshlar sotsiologiyasi tadqiqot ob'ekti sifatida. (misollar keltirib, yoritib bering).

3. Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O'zbekistonda istiqolol sharofati bilan o'rganila boshlanganligi to'g'risida. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot ob'ektlari doirasida o'rganganligi haqida.

Deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlari haqida batafsil ma'lumot bering;

- a) jinoyatchilik
- b) ichkilikbozlik
- v) giyohvandlik
- g) suitsid (o'z-o'zini o'ldirish)
- d) fohishabozlik

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida . . . – T.: O'zbekiston, 1997 y.
3. Karimov I.A. Yangilanishlar va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasidagi ma'ruza. – T.: 2002 y.
4. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi ma'ruza. – T.: 2002 y.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh ettirishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2005 y.
6. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. – T.: O'zbekiston, 2000 y.
7. Begmatov A. Sotsiologiyaga kirish. Andijon, 1995 y.
8. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999 y. 86-96 betlar.
9. Rafiqov G. Mullajonova M. Raximov B. “Sotsiologiya” o'quv qo'llanma. –T.: 2003 y.
10. R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., “O'AJBNT” Markazi, 2002 y. 101-123 betlar

5 – Mavzu: Ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayot sotsiologiyasi (2 soat)

Reja:

1. Shaxs, jamiyat va davlat sotsiologiyasi tushunchalari.
2. Ijtimoiy boshqaruv, iqtisodiy va mehnat sotsiologiyasi.
3. Tashkilotlarning sotsiologiyasi tushunchasi va uning asosiy belgilari.
4. O'zbekistonda iqtisod va mehnat sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

1. Shaxs tushunchasi, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni, individ va shaxs o'rtasidagi tafovut. Jamiyat haqida umumiy ma'lumot, jamiyatning shakllanish jarayoni. Mustaqillik yillarida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar.

Davlat boshqaruvi tizimining yaratilish tarixi, davlat boshqaruvi hozirgi davrda keng tarqalgan boshqaruv usullaridan biri ekanligi. O'zbek davlatchiligi shakllanishi tarixiga oid asarlar bilan tanishish.

2. Ijtimoiy boshqaruv sotsiologiyasi haqida tushuncha, ijtimoiy boshqaruvning ahamiyati roli va o'rni to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish.

Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi, iqtisod, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy jamiyat, an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, iqtisodiy munosabatlar tizimi, iqtisodiyotni ijtimoiylashtirish tushunchasi.

Mehnat sotsiologiyasining yaratilishi, mehnat sotsiologiyasi bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar, mehnat sotsiologiyasi qo'llayotgan uslub va uslubiyotlar tajriba va ilmiy tavsiyalar, mehnatni boshqarishning optimal strategiyasi va taktikasini belgilash.

Mehnat sotsiologiyasining xalq xo'jaligida ijrosi, mehnat sotsiologiyasi bozor munosabatlari sharoitida mehnat muammolarini to'la – to'kis yechib berish va uni istiqbollari belgilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi. Sotsiologiyada “mehnat sharoitlari” kategoriyasi.

3. Tashkilot atamasining ma'nosi, tashkilotning ta'riflari, tashkilotlar – yuqori darajada rasmiylashgan guruhlardir. Tashkilot strukturasi. Ijtimoiy tashkilotlar, tashkilotda mehnat taqsimoti, tashkilotda boshqaruv tizimi, rasmiy, norasmiy, majburiy va utilitar (manfaatli) tashkilotlar.

Tashkilotning pirovard maqsadlari, tashkilotning doimiy maqsadlari, tashkilot xodimlarining xulq-atvor qoidalari. Tashkilotning barqaror amal qilishida ibrat omilining ahamiyati. Tashkilot madaniyati haqida R.D. Lyuis, D. Bollinje, G. Xofshtede, A.I. Prigojin tahlillari.

4. O'zbekistonda iqtisod va mehnat sotsiologiyasini o'rganish o'ta dolzarb ekanligi, iqtisodiy hayotni o'rganishda F.Teylor xizmatlari asosida “iqtisodiy odam” kontsepsiyasining paydo bo'lishi. Iqtisodiy jamiyat, iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi bo'yicha barcha ijtimoiy axborotlarni to'plashga, ishlab chiqarish zahiralardan to'la foydalanishga hamda mehnatni boshqarishning optimal strategiyasi va taktikasini belgilashga xizmat qilishligi. Mehnat sotsiologiyasining predmeti va uslubiyotlari.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-t. T.: O'zbekiston, 1996 y.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 1-t. –T.:“O'zbekiston”, 1996 y.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-t. – T.: O'zbekiston 1996 y.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-t. –T.: O'zbekiston 1999 y.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh ettirishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2005 y.
7. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999 y. 42-68, 73-78, 111-117, 127-139 betlar.
8. Mullajonova M.M. Boxodirov O. Hoshimov T. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matnlari. – T.: T.D.I.U. 2000 y. 23-32-betlar.
9. R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., “O'AJBNT” Markazi, 2002 y. 125-148 betlar.

6 – Mavzu: Mahalla va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi.

(2 soat)

Reja:

1. Mahalla va boshqa o'zini-o'zi boshqaruv sotsiologiyasi tushunchasi.
O'zbekiston mahalliy boshqaruv tizimi shakli.
2. Mahalla demokratiyasini shakllantirishda sotsiologik tadqiqotlarning o'rni.
3. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi tushunchasi va uning asosiy vazifalari.
4. Jamoatchilik fikrining dolzarb yo'nalishlari va ularning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi.

1. Mahallaning (arabcha “mahalla” – joy, o'rin, makon) shunday ma'no anglatishligi, mahallalarni 1991 yilgacha bo'lgan davrdagi holati va mustaqillik yillaridagi rivojlanishi. Mahalla o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim milliy ijtimoiy organi bo'lib, u O'zbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy ko'rinishdagi shakli ekanligi.

Mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, 1993 yil 2 sentyabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan “Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonun. 1999 yil 14-15 aprelda Oliy Majlis tomonidan “Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonunni yangi tahriri, uning asosiy maqsad va vazifalari ijtimoiy mohiyatini ifoda qilib berish. Mahalla – ona maskan va tarbiya maskanidir.

2. Mahalla demokratiyasini shakllantirishda sotsiologik tadqiqotlarning o'rni beqiyos ekanligi. Mahallada o'tkaziladigan sotsiologik tadqiqotlarda turli yosh, kasb va jins vakillarini kengroq qamrab olish zarurligi. Mahalladagi sotsiologik tadqiqotlarda turli xil sotsiologik tadqiqot usullaridan kengroq foydalanish zarurligi.

3. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi tushunchasi haqida keng ma'lumot berish. Uning asosiy vazifalarini odamlarning ongi va tafakkuriga singdirish. Jamoatchilik fikrini o'rganish erkin va anonim ekanligi haqida. Jamoatchilik fikrini o'rganishdan asosiy vazifa ularning yutuq, muammo va kamchiliklarini ilmiy tahlil qilish va ijobiy hal qilishdan iborat ekanligini respondentlar hukmiga havola qilish.

4. Jamoatchilik fikrining dolzarb yo'nalishlarini aniqlash, sotsiologik tahlil qilish va ularni ijtimoiy hayotda qanday namoyon bo'lishligini sotsiologik tadqiqot natijalariga asosan ko'rsatib berish. Hozirgi davrning dolzarb mafkuraviy muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etish yo'llari respondentlar ongiga to'g'risingdirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999 y.
2. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonuni, yangi taxiri. – T.: 1999 y.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999 y.

4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. – T.: O'zbekiston, 2000 y.
5. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999 y. 104-111 betlar.
6. Bekmurodov M. O'zbekistonda jamoatchilik fikri. – T.: Fan, 1999 y.
7. Mullajonova M.M. Boxodirov O. Hoshimov T. Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matnlari. – T.: T.D.I.U. 2000 y.
8. Xolbekov A. Idivov Sotsiologiya. Izohli lug'at. – ma'lumotnoma. – T.: Abu Ali Ibn Sino nom. Tib. nash. 1999 y.
9. R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., "O'AJBNT" Markazi, 2002 y. 160-182 betlar.

7 – Mavzu: Oila va nikoh sotsiologiyasi.

(2 soat)

Reja:

1. Oila sotsiologiyaning tadqiqot ob'ekti.
2. Oilaning ijtimoiy mohayati, uning axloqiy va huquqiy asoslari.
3. O'zbekistonda oila-nikoh munosabatlari hamda millatlararo nikohlar.

1. “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi.

Oila sotsiologiyasi oila nikoh munosabatlarining huquqiy – yuridik yo'nalishlari, axloqiy estetik, oila va islom dini, oila va aholi salomatligini himoya qilish muammosini, oila soni, tarkibi va tuzilishi, oilaning moddiy – iqtisodiy ta'minoti, turmush darajasi, oilada er-xotinning o'rni va roli, oilada ruhiy muhit, oilaviy mojarolar va ajralishlar, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, yosh oilalar va ularning ahvoli kabi yo'nalishlar muhim sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'lib qoladi.

2. Oila jamiyatning kichik yacheykasi sifatida maxsus sotsiologik tadqiqotga muhtoj.

Oila jamiyatning ijtimoiy tarkibining muhim elementi sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida jumladan, biologik, tarbiyaviylik, xo'jalik iqtisodiy, o'zaro yordam, kommunikativ, regulyativ vazifalari haqida alohida tushuntirib o'ting.

3. Oila asosini nikoh munosabatlari tashkil qiladi. Nikoh bu tarixan vujudga kelgan er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy shaklidir. Nikoh orqali jamiyat er-xotin o'zaro jinsiy hayotini tartibga soladi va ularning oiladagi huquq va burchlarini qonunlashtiradi.

Er-xotinning nikohdan o'tishi oqibatida oila vujudga keladi. Birinchi farzandning dunyoga kelishi esa bolali oilani yuzaga keltiradi.

Oilaning tipining muhim belgilaridan biri oila a'zolarining yoshi hisoblanadi, yana bir muhim belgisi oilada bolalar soni hisoblanadi. Respublikamizda va MDHning Yevropa qismidagi mamlakatlardagi oilalarning muhim belgilari haqida to'xtalib o'ting.

Oilaviy ajralishlar, qo'ydi-chiqdilarini keltirib chiqaruvchi tip sabablarini o'rganish va uni oldini olish uchun ilmiy – amaliy tavsiyalar ishlab chiqish oila sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oilaviy ajralishlarning asosiy sabablari nimalar?, ajralishlarning tarafdori ko'proq kim: erkaklarmi yoki ayollarmi?, qaysi birlari ko'proq aybdor?, hozirda qanday omillar oilaviy qo'ydi-chiqdilariga sabab bo'lmoqda?. Ushbu mavzuda respublikamizda olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ma'ruza mashg'ulotlarida sizlarning e'tiborlaringizga havola etilgan. Ular haqidagi fikrlaringizni izohlab bering.

Адабиётлар:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999 y.

2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.1-t. –T.: “O’zbekiston”, 1996 y.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-t. – T.: O’zbekiston 1996 y.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. 6-t. – T.: O’zbekiston, 1998 y.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. 7-t. –T.: O’zbekiston 1999 y.
7. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999 y. 140-145 betlar.
8. Mullajonova M.M. Boxodirov O. Hoshimov T. Sotsiologiya fanidan ma’ruzalar matnlari. – T.: TDIU. 2000 y.

8 – Mavzu: Empirik (aniq) sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish usullari.

(2 soat)

Reja:

1. Empirik sotsiologik tadqiqot nima. Sotsiologik tadqiqotning asosiy bosqichlari.
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy tuzilishi.
3. Empirik ma'lumotlarni olish usullari. (Tanlov xujjatlarni tahlil qilish, kuzatish, so'rov, anketa, intervyu va boshqalar).
4. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

1. Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimgi "yunoncha" bo'lib "tajriba" ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot – yagona dastur va uslubiyot bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlari to'g'risida olingan Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy fakt deganda ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarning asosiy (to'rt) bosqichlari to'g'risida to'xtalib o'tasiz.

2. Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarning asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi. Dastur hayot haqiqatidan kelib chiqqan va ilmiy nazariy jihatdan puxta ishlangan bo'lishi lozim.

Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Dastur asosan ikta katta bo'limdan ya'ni birinchisi nazariy metodologik va amaliy uslubiy bo'limlardan iboratdir. Bular haqida ma'lumot berib o'ting.

3. Empirik ma'lumotlarni olish usullariga. Tanlov xujjatlarni tahlil qilish, kuzatish, so'rov, anketa, intervyu va boshqalar kiradi. Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani so'rov usulidir. So'rov usulining mohiyati va qo'layligini izohlab bering.

To'planishi kerak bo'lgan ma'lumot xarakteri va uni to'plash usuliga qarab so'rovlar ikki turga bo'linadi:

1. Anketa so'rovi

2. Intervyu

Ularni batafsil yoritib bering.

4. Ma'lumotlarning tahlil bosqichi o'rganilayotgan ob'ekt haqida olingan axborotni shu ob'ekt haqida olingan mavjud bo'lgan axborot bilan solishtirishdan iboratdir. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil etish bosqichining ma'nosi va maqsadi natijalarning ma'nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdir.

Sotsiologik tadqiqotning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy – uslubiy yechimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi ishtirokida amalga oshiriladi. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidagi ayrim bosqichlarni ajratib tafsivlash maqsadga muvofiqdir. Ular haqida to'xtalib o'ting.

Amaliy sotsiologik tadqiqotning asosiy maqsadi amaliyot tomonidan ilgari surilgan masalalarning yechimidir. Shuning uchun bunday tadqiqot hisobotida gipotezalar, tadqiqot vazifalari, o'rtacha ko'rsatkichlar tizimi, axborotlar, tanlovi va boshlang'ich axborotlarni yig'ish bo'yicha tadqiqot uslublari tarkibi tavsiflab beriladi hamda ularning umumiy natijalaridagi o'rni ochib beriladi.

Hisobotda qo'yiladigan asosiy talablar haqida to'xtalib o'ting.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999 y.
 2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-t. – T.: O'zbekiston, 1997 y.
 3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-t. – T.: O'zbekiston, 1998 y.
 4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 7-t. –T.: O'zbekiston, 2001y.
 5. Bekmurodov M. va boshqalar. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: O'zROUMVA 2000 y.
 6. Nosirxujaev S., Bekmurodov M ., Sultonov T. Sotsiologiya asoslari. Maruzalar matni.-T: 2000 y.
 7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7-t.- T:O'zbekiston, 1999 y.
 8. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya.-T: Tosh D U, 1999 y. 146-170 betlar.
 9. Abduraxmonov va boshkalar. Sotsiologiya. Maruzalar kursi.-T: O'zRIIVA, 2000 y.
 10. Sotsiologiya fanidan maruzalar matni.-T: TDIU, 2000y.
- R.A. Ubaydullaeva, M.B. Bekmurodov, O. B. Ota-Mirzaev va boshqalar. Sotsiologiya. T., "O'AJBNT" Markazi, 2002 y. 184-235 betlar.

Sotsiologiya fanidan simenar mashg'ulotlar ishlanmasini sotsiologiya kafedrasi dotsenti T.Tilobov va katta o'qituvchilar A. Shaymanova, Sh. Ermatovlar tayyorladilar.

27-avgust 2009 yil.

**Qarshi Davlat universiteti “Sotsiologiya” kafedrası o’qituvchilari tomonidan
tayyorlangan “Sotsiologiya” fanidan seminar ishlanmasiga**

T a q r i z

Qarshi Davlat universitet “Sotsiologiya” kafedrası o’qituvchilari dots. T.Tilobov, f.f.n. A.Shaymanova va Sh.Ermatovlar tomonidan tayyorlangan seminar ishlanmasi Oliy ta’lim barcha bakalavr yo’nalish talabalari uchun tayyorlangan bo’lib, me’yoriy talablarga to’la javob beradi.

Seminar ishlanmasi rejaga asosan 16-soat hajmda ishlab chiqilgan va talabalar mavzuni chuqur o’zlashtirish uchun kerakli adabiyotlar va tavsiyalar berilgan.

Ishlanmada ma’ruza darslari jarayonida talabalarga yetkazilishi lozim bo’lgan malumotlardan tashqari talabalarni rejadagi har bir savolga chuqurroq kirib borishi va qo’shimcha adabiyotlar ustida ishlashi va shu bilan birgalikda ular o’zlashtirishi lozim bo’lgan ko’rsatmalar berilgan.

Ishlanmaning birinchi mavzusida Sotsiologiya jamiyat haqidagi fandır. Sotsiologiya jamiyatning ichki tarkibini uning amal qilish tartibotlari va rivojlanish qonunlarini o’rganadi. O. Kont Sotsiologiya fanining asoschisi ekanligi to’g’risida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, Sotsiologiya fanining uslub va qonuniyatlari to’g’risida, sotsiologiya fanining sohaviy tizimlari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o’rni xususida, sotsiologiyaning hozirgi zamon tizimlari va ularning tasnifi yuzasidan talabalarning mustaqil ishlashlari uchun yo’nalishlar berib o’tilgan.

Ishlanmaning ikkinchi mavzusida Jahon sotsiologiya maktabining nazariy - ma’naviy poydevori va unga doimiy ilhom bag’ishlovchi bebaho obidasi hisoblanmish antik dunyo sotsiologiyasi va uning guruhlari to’g’risida fikrlar bayon etilgan.

Abu Mansur al – Moturidiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Haldun, Amir Temur, Bobur, Navoiy va boshqa Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlariga ham e’tibor qaratish lozimligi xususida alohida ta’kidlab o’tilgan. Shu bilan birga ushbu seminar ishlanmasida sotsiologiyaning Yevropada fan sifatida vujudga kelishi va XIX asr oxiri

XX asr boshlarida klassik mumtoz sotsiologiya va uning namoyondalarining ijodlari haqida to'xtalib o'tishlari kerakligi ta'kidlangan.

Ishlanmaning uchinchi mavzusida asosan ijtimoiy munosabatlar sotsiologiyasi xususida, ijtimoiy birdamlik va ijtimoiy begonalashuv tushunchalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, sotsiologiyaning maxsus sohalari hisoblanmish fan sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi va madaniyat sotsiologiyasi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan va talabalarga yuqoridagi maxsus sohalarni asosiy jihatlarini yoritishda ushbu seminar ishlanmasidan foydalanish qo'l keladi deb o'ylayman.

Ishlanmaning to'rtinchi mavzusida jamiyatning ijtimoiy tarkibiy tuzilishi haqida, shuningdek, sotsiologiyaning asosiy tushunchalari va maxsus sohalari hisoblanmish sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik haqida izoh berib o'tilgan.

Ushbu seminar ishlanmada sotsiologiyaning asosiy maxsus sohalari bo'lmish yoshlar sotsiologiyasi to'g'risida va yoshlarni muammosini o'rganishda tamoyillarga asoslanishi haqida ham fikr yuritilgan. Shu bilan birga deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va uning nisbatan keng tarqalgan turlari haqida ham talabalar bilib olishlari uchun yetarli ma'lumotlar berilgan.

Ishlanmaning beshinchi mavzusida shaxs tushunchasi, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni, individ va shaxs o'rtasidagi tafovut to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Fanning maxsus sohalari bo'lmish jamiyat, davlat sotsiologiyalari haqida ma'lumot berilgan. Seminar ishlanmasida shu bilan birga ijtimoiy boshqaruv, iqtisodiyot, mehnat sotsiologiyasi, xamda tashkilotlar sotsiologiyasi tushunchasi va uning asosiy belgilari xususida, shuningdek O'zbekistonda iqtisod va mehnat sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga qisqa, tushunarli tarzda ma'lumot berilgan.

Ishlanmaning oltinchi mavzusida o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muxim milliy ijtimoiy organi bo'lgan, O'zbekistondagi ijtimoiy xayot tarzining maxalliy ko'rinishidagi shakli xisoblangan mahalla va boshqa o'zini-o'zi boshqaruv sotsiologiyasi tushunchasi haqida hamda mahalla demokratiyasini shakllantirishda sotsiologik tadqiqotlarning o'rnini muhimligi to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Ushbu seminar ishlanmada shu bilan birgalikda jamoatchilik fikri sotsiologiyasi tushunchasi va uning asosiy vazifalari haqida, jamoatchilik fikrining dolzarb yo'nalishlari va ularning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishini sotsiologiya tadqiqot natijalariga asosan ko'rsatib berishi lozimligi aytib o'tilgan.

Ishlanmaning yettinchi mavzusida jamiyatning kichik yachikasi sifatida maxsus sotsiologik tadqiqotga muhtoj bo'lgan maxsus soha oila va nikoh sotsiologiyasi haqida fikr yuritilgan. Ushbu seminar ishlanmada oila va nikoh sotsiologiyasining tadqiqot ob'ektlari xususida, oilaning ijtimoiy mohiyati, uning axloqiy va huquqiy asoslari to'g'risida, shuningdek, O'zbekistonda oila nikoh munosabatlari hamda millatlararo nikohlar xususida ma'lumotlar berilgan.

Ishlanmaning sakkizinchi mavzusida sotsiologiya fanini imperik sotsiologik tadqiqotlar jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmasligi haqida fikr boradi. Hamda sotsiologik tadqiqotning asosiy bosqichlari, sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tarkibiy tuzilishi, imperik ma'lumotlarni olish xususida, sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish haqida aytib o'tiladi.

Ketma ketlik asosida yoritib berilgan ishlanmadan barcha Sotsiologiya fanidan dars beruvchi prof-o'qituvchilar xam foydalansa bo'ladi.

Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti
falsafa kafedrasi katta o'qituvchisi

Jalilov B.